



ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINI METAPREDMETLI YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA METODIK TAYYORLASHNING AFZALLIKLARI

O‘rinova O.O‘

Farg‘ona davlat universiteti kimyo kafedrası dotsenti

Tayanch so‘zlar: metapredmetli yondashuv, fanlararo aloqadorlik, kasbiy faoliyat, mazmundor, pedagogik va tashkiliy-metodik jihat, ta‘lim mazmuni, pedagogik faoliyat

Ключевые слова: метапредметный подход, междисциплинарность, профессиональная деятельность, содержательный, педагогический и организационно-методический аспект, содержание образования, педагогическая деятельность.

Key words: metasubject approach, interdisciplinarity, professional activity, meaningful, pedagogical and organizational-methodical aspect, educational content, pedagogical activity.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda metapredmetli yondashuv asosida pedagogik, ilmiy-metodik asoslari batafsil yoritilgan. Muammoning mazmundor, jarayonli va tashkiliy-metodik jixatlari asoslab berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье подробно описаны педагогические, научно-методические основы подготовки будущих учителей химии к профессиональной деятельности на основе метапредметного подхода. Обоснованы содержательный, процессуальный и организационно-методический аспекты проблемы.

SUMMARY:

The article describes in detail the pedagogical, scientific-methodical foundations of preparing future chemistry teachers for professional activity based on the metasubject approach. The substantive, procedural and organizational-methodical aspects of the problem are justified.

Respublikamizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda keng raqobat muhitini shakllantirish, “pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish” qo‘shimcha kvalifikatsiyalar berishning innovatsion yo‘nalishlarini oliy ta‘limga tadbiq etish, uning milliy zaminini mustahkamlash sohasida universitetlarning ko‘p darajali tarkibida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kimyo ta‘limi jarayonidai innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tayyorgarlik deganda an'anaviy talabalarning pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bilim va ko'nikmalarni elementar tarzda o'zlashtirishlari tushunilar edi. O'qituvchi tomonidan beriladigan saboq mazmuniga qo'yilayotgan yangicha talab va vazifalarga muvofiq ravishda bunday yondashuv mazmunini kengaytirish va "pedagogik tayyorgarlik" tushunchasiga kengroq ta'rif berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy tamoyillaridan biri bu hamkorlikda yechiladigan ikkita masala hisoblanadi: "pedagogik faoliyatni (kasbiy pedagogik tayyorgarlik) amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarlikni ta'minlovchi psixologik-pedagogik fanlar majmuini chuqur o'zlashtirish hamda o'quv fanlariga aylantirilgan mazkur fanni qabul qilish usullarini tizimlashtirish". Pedagogik tayyorgarlik pedagogik faoliyatning negizi hisoblangan kasbiy va fan (predmet) elementlaridan iboratdir.

O'quv, pedagogik, metodik va ilmiy faoliyat asosida talabalarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanib, o'qituvchi va jamiyat tomonidan belgilanadi, asosan yosh avlod shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu faoliyat, avlodlarning o'zaro ijtimoiy bog'liq aloqalarini amalga oshirishga yoshlarni tayyorlash, insonning tabiiy imkoniyatlaridan jamiyat tajribalarini egallashda foydalanishdan iborat"

Bir qator tadqiqot ishlarida faoliyat modeli haqida so'zy uritiladi va ularda zamonaviy talablarga muvofiq ravishda o'qituvchi salohiyati darajasiga oid faoliyat to'qqizta yo'nalishga bo'lingan: o'rgatuvchi, mobil-yo'naltiruvchi, rivojlantiruvchi, kommunikativ, tashkiliy, konstruktiv, tadqiqotchilik, texnik, tadbirkorlik.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik faoliyatga tayyorlashda malaka amaliyotlari muhim o'rin egallaydi. Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi: o'quv (tanishuv) amaliyoti - iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi; kimyoviy fan amaliyoti (ishlab chiqarish amaliyoti) - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi; bitiruv oldi amaliyoti - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi; pedagogik amaliyot - talabalarning pedagogik kasbiy yo'naltirishlari



uchun qo'llaniladi va pedagogik faoliyatini oshirishga qaratiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yo'naltirilgan usullar hozirgi kun talabiga to'liq javob berishi bilan birga talabalarni mustaqil fikrlashga, mahoratini oshirishga va metodik yo'ndoshuvlar sifatida rivojlanishga undaydi.

Boshqacha aytganda, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirishning muhim sharti – ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv va rang-barang pedagogik faoliyatdan iborat xizmat ko'rsatish sanaladi. Yurtimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich va muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyati va uning kasbiy nufuzini oshirish bilan bog'liq xolda amalga oshirilmoqda.

Shu sababli ham ular o'z mahoratlarini uzluksiz oshirib borishlari hamda hozirgi kunning yuksak va malaka talablariga mos zamonaviy bilim, ko'nikma va tajribalarni o'zlashtirishi, ijodiy mehnat qila olishi zamon talabidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi muxim islohotlar o'quv-tarbiya ishlarini butunlay yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish, yuqori sifat ko'rsatkichiga erishishni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi chuqur his qilinib, ularni o'quv jarayoniga tatbiq qilish borasida keng miqyosda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari yaratilmoqda, har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, o'quv jarayoniga tatbiq qilish bo'yicha yetarli darajada tajribalar to'planmoqda. Talabalarning fanlarga qiziqishini ta'minlaydigan asosiy omil mazmun va uning mohiyati hisoblanadi. Hozirgi kunda fan-texnika jadal rivojlanayotgan bir paytda fanning o'qitish mazmunini, mohiyatini hamda vazifa va yondashuvlarni umumiy tarzda belgilash qiyin emas. Bunday belgilash fanlar bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida belgilanadi. Masalan, kimyo fanidan ana shunday davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (7-9 sinflar uchun) yaratilib, 2000-2001 o'quv yilidan amalga joriy etila boshlandi va shu asosda 7-8 – sinflar uchun darsliklar tayyorlandi. Kimyoviy fan va texnika, jumladan, kimyo fani asosidagi ishlab chiqarish, to'xtovsiz rivojlanmoqda. Shunga muvofiq, ilmiy axborot ham kun sayin jadallik bilan ko'payib bormoqda. Lekin darsliklarda fan asoslari, ko'p tajriba va kuzatishda isbotlangan qonun, tushuncha hamda qoidalar saqlanib qolishi kerak. Bundan tashqari, darslikning amalda qo'llanish muddati chegaralangan. O'quv dasturi va darslik kamida besh yil amal qilishi kerak. Agar ularni tayyorlash va nashrdan chiqarish uchun ketadigan 3-5 yil vaqtni ham xisobga oladigan bo'lsak, biz eng yangi deb hisoblagan, ya'ni talab darajasidagi darslik va dastur fan taraqqiyotidan 5-10 yil orqada qoladi.



Mazmun va jihoz talab darajasida o‘z vaqtida yangilanishi bilan bir qatorda fanlarni yangi mazmun va yangi jihozlar asosida o‘qitishni amalga oshirishga o‘qituvchilarni puxta tayyorlanishi talab etiladi. Bu o‘z navbatida sinovlardan o‘tgan mavzularni no‘ananaviy o‘qitish uslublari bilan ta‘minlash, tanishtirish muammolarini keltirib chiqaradi. Ana shu muammolar nazarda tutiladigan bo‘lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish va yoshlarni aniq yo‘nalish, mutaxassisliklariga tayyorlash kafolati qanchalik murakkab muammo ekanligi kelib chiqadi.

Demak, matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlarini umumiy ta‘lim maktablarida, akademik litsey, ham kasb-hunar maktablarida o‘qitish mazmunini faqatgina dastur yoki darslik bilan zamon talabida belgilash etarli emas. Buning uchun bir necha bosqichda o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun alohida-alohida o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy-ommabop kitoblar, fan yangiliklarini aks ettiruvchi oynoma, haftalik ro‘znomalar bo‘lishi kerak. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda chop etilgan fanlarga doir turli xil kitoblar, test topshiriqlari, savollar to‘plamlarining o‘zbek tilidagi tarjimasini ham nashr etish zarur.

Ta‘limda jihoz masalasi alohida mavzu hisoblanadi. Bu boradagi muammolar bilan mutasaddi tashkilotlar, homiy jamoalar shug‘ullanishi kerak. Fandagi yangi mazmun va jihozni ta‘limga joriy qilish uchun eski o‘qitish uslublarni ham yangilash taqozo etiladi. Buni dunyoqarashi keng, ko‘p yillik ish tajribasiga, zamonaviy bilimiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar yaratadi. Ularga maxsus sharoit yaratib berilishi hamda, eng avvalo, iqtisodiy jihatdan ta‘minlanmoqlari lozim. Kimyo fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida barcha o‘quv yurtlarida zamon talabi darajasida tashkil etish ta‘lim ilmiy va tarbiyaviy tartibga hamda talaba va o‘qituvchi tanloviga bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2010. –127 b.
2. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – T.: “Sanostandart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Iskandarov A. Kimyodan masalalar echish metodikasi. Darslik. Toshkent, 2018y. –59 b.
4. Azizova G.G. Oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish (ingliz tili materiallari misolida). Diss.avtoref.Samarqand-2019 y.- 52 b.
5. O‘rinova O. O‘ Fanlararo aloqadorlik bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali omili sifatida. Ta‘lim, fan va innovatsiya. 2022-yil, 4-son.-B.93-96.(13.00.00)
6. O‘rinova O.O‘. Universitetlarda bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining pedagogik samaradorligi. Ilmiy axborotnoma. Namangan. 2022, 8-son.-B.607-613. (13.00.00)